

Mustafayev Elyor Odil o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

e-mail: elyormustafayev1993@gmail.com

УДК: 81-2:512.3(045)(575.1)

***Annotatsiya.** Frazzeologiya o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi til sohasi, o'tgan asrning 50-yillaridan keyin rivojlana boshlagan bo'lishiga qaramasdan, boshqa tilshunoslik bo'limlari singari o'ziga xos ahamiyatga ega va frazeologiya bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham anchagina. Frazzeologik birliklar lug'aviy birlik sifatida umuman olganda har qanday tilda muhim ahamiyatga ega va ular miqdor jihatdan ham tilda katta leksik qatlamni tashkil etadi. Muallif ushbu maqolada frazeologik birliklarning tildagi ahamiyati, ayniqsa ularning o'rganilishiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, maqolada frazeologiyaning tarkibi yuzasidan xilma-xil qarashlarning mavjudligi, ya'ni frazeologiya aslida nimani o'rganadi, uning predmeti nima degan savollarga javob beriladi. Iboralarning nomlanishi yuzasidan ham turlicha fikrlar mavjud bo'lib, muallif ushbu jihatga ham alohida to'xtalib o'tgan. Frazzeologik iboralarning o'zbek tilida o'rganilishi tarixi: tilda alohida yo'nalish sifatida shakllanishi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** ibora, frazeologiya, frazeologik birlik, leksik qatlam, lug'aviy birlik, tahlil.*

**ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКЕ**

Мустафаев Эльёр Одирович,

преподаватель кафедры иностранных языков

Аннотация. Фразеология является относительно новой языковой областью в узбекском языкознании, несмотря на то, что её развитие началось в 50-х годах прошлого века, фразеология имеет своё значение, как и другие разделы языкознания, и по ней проведено множество научных исследований. Фразеологизмы как лексическая единица важны в любом языке и составляет в нём большой лексический пласт. В данной статье автор подчеркивает значение фразеологизмов в языке, изучает их особенности. Кроме того, в статье даны ответы на вопросы о существовании различных взглядов на состав фразеологии: что, на самом деле, изучает фразеология, каков её предмет. По поводу сочетания слов во фразеологизме существуют различные мнения, поэтому автор затронул и этот аспект. Анализируется история становления фразеологических выражений как отдельного направления в узбекском языке.

Ключевые слова: словосочетание, фразеология, фразеологизм, лексический пласт, лексическая единица, анализ.

STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

Mustafaev Elyor Odil ugli

Teacher of the Department of Foreign Languages

Tashkent State University of Law

Abstract. Phraseology is a relatively new linguistic area in Uzbek linguistics, despite the fact that it began to develop after the 50s of the last century. It has its own significance, like other branches of linguistics, and a lot of scientific research has been carried out on it. phraseology. Phraseologism as a lexical unit is important in any language in general and constitutes a large lexical layer in the

language. In this article, the author emphasizes the importance of phraseological units in the language and the features of their study. The article also answers questions about the existence of different views on the composition of phraseology, that is, on what phraseology actually studies and what its subject is. There are different opinions regarding the naming of expressions, and the author also touched on this aspect. The history of the study of phraseological expressions in the Uzbek language is analyzed, including their formation as a separate direction in the language.

Keywords: *phrase, phraseology, phraseological unit, lexical layer, lexical unit, analysis.*

Frazeologiya tilshunoslikning alohida yo'nalishida sifatida nisbatan kech shakllangan bo'lib, frazeologiyani alohida o'rganish bo'yicha dastlabki tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan keyin boshlangan. Y. Pinxasovga ko'ra frazeologik birliklar dastlab adabiyotshunoslik predmeti hisoblangan, chunki iboralar badiiy adabiyotda keng foydalanilgan va asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ham iboralar muhim ahamiyat kasb etgan. [Y. Pinxasov. 1969:55].

Frazeologiyaning o'zbek tilshunosligida shakllanishi tilshunos olim Sh. Rahmatullayev nomi bilan bog'liq. Olimning frazeologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi va "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasi sohani alohida bo'lim sifatida shakllanishida katta xizmat qildi va keng tadqiqotlar uchun manba vazifasini o'tadi. Keyinchalik, Sh. Rahmatullayev (1978-yil) o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atini yaratdi. Keyinchalik, frazeologiyani turli jihatdan tadqiq qilishda I. Qo'chqortoyev, E. Umarov, A. Mamatov, O. Abdinazarov, H. Qahhorova, B. Yo'ldoshev, A. Mamatovlar kabi olimlarning hissasi katta bo'ldi. Ular tomonidan turli dissertatsiya, monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar chop etildi.

Frazeologiyani o'rganish yuqorida ta'kidlaganimizdek biroz keyinroq boshlangan. Aslida frazeologiya rus tilshunoslari tomonida alohida o'rganila boshlangan. Misol uchun, V. Vinogradov kabi olimlar dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirgan. Natijada o'zbek tilshunosligida ham ilmiy izlanishlar olib

borishga keng yo'l ochilgan. B. Yo'ldoshev o'zining himoya ishida frazeologiya fani tarixini xronologik jihatdan quyidagi 3 davrga bo'lish mumkinligi aytib o'tgan:

1) Birinchi davr: XVIII asr o'rtalaridan to XX asr 30-yillarigacha;

2) Ikkinchi davr: XX asrning 30-50-yillarigacha;

3) Uchinchi davr: XX asr 60-yillaridan to mustaqillikning dastlabki davrigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi. [B. Yo'ldoshev. 1993:297]. Bugungi kunga qadar frazeologiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom etib kelmoqda.

Frazeologik birliklarni nomlashda ham turli qarashlar mavjud. Masalan, tilshunos Y. Pinxasov frazeologik birliklarni *barqaror so'zlar bog'lanmasi yoki frazeologik iboralar* deb nomlaydi. Professor H. Jamolxonov esa frazemalarni ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya deb hisoblaydi. Yana boshqa bir tilshunos Sh. Rahmatullayev iboralar nutqqa yaxlit kirib kelganligi va shu yaxlitligini nutqdan tashqarida ham saqlaganligi tufayli ularni *turg'un bog'lanma* deb ataydi. Shuningdek, Sh. Rahmatullayevga ko'ra ikki va undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng ko'chma ma'no tashuvchi frazeologik birliklar ibora deb ataladi [Sh. Rahmatullayev. 1970:56].

Frazeologiyani o'rganishda keng va tor tushuncha mavjud, ya'ni ba'zi olimlar frazeologiya keng ma'noda frazeologik birlik, maqol, matal va tasviriy ifodani ham o'rganadi deb qarasa, boshqa tilshunoslar frazeologiyaning predmeti faqat iboralar degan g'oyani ilgari suradi. Misol uchun, maqol va matallar, folklorshunos olimlarning fikricha, folklor janriga tegishli bo'lib, ularni o'rganuvchi soha paremiologiya deb nomlanadi. [O. Madayev. 2010:65].

A. Mamatov "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi" nomli dissertatsiyasi va monografiyasida iboralarni kundalik hayot tarzi va kasbdan kelib chiqib shakllanganiga urg'u beradi va ularga misollar keltiradi. Haqiqatdan, iboralar xalqning boy tarixi, madaniyati, dini ta'sirida shakllan hikmatli so'zlar. Iboralar doimiy tilning ichki va tashqi imkoniyati va shuningdek madaniy aloqalar natijasida boyib boradi.

Frazeologik birliklar katta leksik qatlamni qamrab oladi. Ularning leksik

birlikdan asosiy farqi shundaki, ular bittadan ortiq soʻzdan tashkil topganligi. Bugungi kungacha frazeologik birliklarni oʻrganishda ularning sinonimlik, omonimlik va paronimlik xususiyatlari, stilistikasi, ularni oʻqitish va ularning shakllanishiga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Frazeologiya sohasida qator qilingan ilmiy tadqiqotlarga qaramasdan, hali ham frazeologiyaning maxsus oʻrganilmagan jihatlari mavjud. Jumladan, frazemalarning uslubiy funksiyalari, ularning soʻz, birikma va gaplar bilan semantik hamda uslubiy munosabati, iboralarning qoʻllanish darajasi kabi qator masalalar oʻzining tugal va asosli yechimini topmagan [B. Yoʻldoshev 1998:5]. Shuningdek, frazeologizmlarni tadqiq etishda milliy madaniyat va turmush tarzidan kelib chiqib yondashish, ularning lingvokulturologik va kognitiv talqini kabi masalalar hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri chunki soʻnggi yillarda tilshunoslikda yangi uslub va yoʻnalish sifatida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya shiddat bilan kirib keldi [M. Bekiyeva 2022:4]. Fikrimizcha, frazeologiyani soʻz turkumlari doirasida oʻrganish va ularni shu jihatdan tasniflash va boshqa tillar bilan qiyosiy jihatdan oʻrganish ham lozim chunki ular ham grammatik ham leksik jihatdan bir biridan farq qiladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, oʻzbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev tomonidan oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻatini 1978-yilda yaratilganligi ushbu lugʻatni yangilash va toʻldirish lozimligini koʻrsatadi. Chunki ushbu oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tili ichki va tashqi manbalar hisobiga sezilarli darajada boyidi: leksik birliklar koʻpaydi. Frazeologik birliklarning kelib chiqishiga nazar tashlasak, iboralar uzoq davrlar mobaynida xalqning boy madaniyati, tarixi, tili va dini asosida shakllangan umumtil boyligi hisoblanadi. Ayniqsa, oʻzbek tilida iboralar keng qoʻllanadi va bu nutqni taʼsirchan, jozibali va yanada tushunarli qilishga xizmat qiladi.

Xursand boʻldim deyishdan koʻra *boshim osmonga yetdi* deyish soʻzlovchining naqadar xursand ekanligini ifodalaydi va tinglovchida ham chuqur taassurot qoldiradi. Fikrning ifoda maqsadini aniq ochib beradi va nutqning ekspressivligini toʻliq taʼminlaydi.

Iboralar bittadan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi ko'p ma'nolik (frazeologik polisemiya) deb ataladi. Frazeologik polisemiya hodisasi ko'plab tilshunoslar, jumladan, Sh. Rahmatullayev, Y. Pinxasov, B. Yo'ldoshev, aka-uka Mamatovlar, A. Berdialiyev va boshqa ko'plab olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Frazeologik polisemiya bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Frazemalar birdan ortiq ma'nolar ifodalasa, ular polisemantik frazemalar sanaladi. Polisemantik frazemalarning oddiy ko'rinishi ikki ma'noli bo'ladi. Masalan, aqli yetadi frazemasini "idrok qilmoq" va "ishonch hosil qilmoq" kabi ikki ma'noga ega. Bo'yniga qo'yimoq frazemasini uch ma'nolidir: 1) "to'nkamoq, ag'darmoq", 2) "isbotlab, e'tirof qildirmoq", 3) "bajarishga rozi qilmoq" [Berdialiyev A., Ermatov I. 2021:162] Aynan shu jihati bilan ibora turg'un birikma, maqollardan farqlanadi.

Iboralar ham o'ziga xos grammatik xususiyatga ega. Ularning turlanish va tuslanishi ularning qaysi so'z turkumiga xosligiga bog'liq. Iboralarning grammatik tarkibi ham leksik tarkib singari o'zgarish olish xususiyatiga ega. **Ko'ngli og'ridi - ko'nglini og'ritdi** misollarini olaylik. **Ko'ngli og'ridi** iborasi gapga teng, ega va kesimdan iborat. **Ko'nglini og'ritdi** esa birikma shaklida. Bunda birinchi ibora fe'l va bosh kelishikdagi ot bilan munosabatga kirishgan, ikkinchi iborada esa fe'l orttirma nisbat qo'shimchani olib o'timli fe'lga aylangan va ot bosh kelishikdan tushum kelishigiga o'zgargan. "Fe'l iboraning mayl, zamon, shaxs-son ko'rsatkichlarini olib o'zgarishi iboraning tashqi grammatik o'zgarishidir.

Iboralarni sinonimlik xususiyati ham chuqur tadqiq etilgan. Bir tushunchani ifodalash uchun bir necha ekvivalent iboralar, ya'ni sinonim iboralar qo'llaniladi. Masalan, *boshi osmonga yetdi/terisiga sig'madi/og'zi qulog'iga yetdi* kabi sinonim iboralar **xursand bo'ldi** ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tilshunos S. Rahimovning fikricha "frazeologik birlik ma'lum jihatdan ko'chma ma'noli so'zga o'xshaydi, shuning uchun ko'pincha frazeologik birlik so'zga ekvivalent va ular korrelyativdir, deb aytiladi. Biroq bu ekvivalentlik shakliy emas, balki semantik-funksional, ya'ni frazeologiya nutqimizda to'la ma'noli so'z sifatida, umuman olganda, bir xil vazifani bajaradi (tushunchani ifodalaydi, hodisani bildiradi, gap qurilishida ishtirok etadi)" [S. Rahimova

2022:16].

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida frazeologiya bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan. Unda frazeologiyaning o‘rganish predmeti ularning tabiati va substansional xususiyatlari hamda nutqda amal qilishiga bog‘liq degan fikr ilgari suriladi. Bundan tashqari, frazeologik birliklarning semantik strukturasi haqida quyidagicha fikr bildiriladi “frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo‘lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iboratligi, frazeologizmning shakli tomonini so‘z (leksema emas) tashkil qilishi, ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma’no ekanligi ta’kidlanadi”.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, o‘zbek tilshunosliga frazeologik birliklar, umuman olganda frazeologiyani o‘rganish muhim bosqichga kirgan, ya’ni yangicha yondashuvlar tadbiq etilmoqda. Frazeologiyani alohida fan sifatida o‘qitilishi esa uning tilimizdagi o‘rni naqadar muhimligini yaqqol ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y. Pinxasov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., 1969. – B. 55.
2. B. Yo‘ldoshev. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fanl. dokt. ... diss. Avtoref. – T., 1993. – B. 297.
3. Sh. Rahmatullayev. Nutqimiz ko‘rki. – T., 1970. – B. 56.
4. O. Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., 2010. – B. 65.
5. B. Yo‘ldoshev. Frazeologiya tarixidan lavhalar. – S.: “So‘g‘diyona” nashriyoti, 1998. – B. 5.
6. M. Bekiyeva. Frazeologizmlarning lingvokulturologik va kognitiv talqini. F.f.f.d. diss. – Andijon, 2022. – B. 4.
7. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T., 2021. – B. 162.
8. S. Rahimova. O‘zbek tilida frazeologik polisemiya va uning leksikografik talqini. F.f.f.d. diss. – Guliston, 2022. – B. 16.